

**“Navoiyuran” davlat korxonasida 2025-yilning 1-choragi davomida
korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida
HISOBOT**

“Navoiyuran” DK tomonidan 2025 yilning 1-choragi davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar dasturida belgilangan vazifalar doirasida tegishli tadbirlar amalga oshirildi.

Korxonaning Komplayens xizmatiga 2 nafar xodim ishga olindi. Ishga qabul qilish jarayonini shaffof va ochiq bo‘lishi hamda sinov tadbirlari internet tarmog‘i orqali real vaqt tizimida kuzatish tartibi ta’minlandi.

2025 yilning 1-choragi davomida ishga qabul qilingan barcha xodimlar mehnat shartnomalari tuzish jarayonida korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishi bo‘yicha asosiy ichki me‘yoriy hujjatlar bilan tanishtirildi, shuningdek, shartnoma shartlarida korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishidagi shartlar kiritildi.

Korrupsiyaviy holatlarni oldini olish, korxona xodimlarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish maqsadida 2025 yil 1-chorakda korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishida 3 ta o‘quv seminar tadbiri o‘tkazildi hamda korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishidagi ma’lumotlar ommaviy axborot vositalarida, korxonaning rasmiy veb-saytida va ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida yoritib borildi.

Korxona boshqaruv xodimlari tomonidan taqdim etilgan 803 ta ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyalar komplayens xizmati tomonidan tahlil etilib, aniqlangan 25 ta ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi holatlari yuzasidan korxonaning odob-ahloq komissiyasiga taklif kiritildi.

“Navoiyuran” davlat korxonasida korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko‘p moyil bo‘lgan lavozimlar ro‘yxati va mavjud xavf-xatarlarni minimallashtirish bo‘yicha belgilangan chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi.

2025 yil 1-chorakda korxona xodimlarining korrupsiyaviy hatti-harakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari yuzasidan 2 ta xizmat tekshiruvlari o‘tkazildi.

Davlat xaridlari sohasida o'tkaziladigan tender (tanlov) xaridlari elektron davlat xaridlari platformalarida o'tkazilib, tender (tanlov) natijalari mazkur platformalarda ochiq e'lon qilinmoqda.

Korxona bilan shartnomaviy munosabatlarni tuzadigan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxslar, kontragentlarni tekshirish amaliyoti yo'lga qo'yilib, kontragentlarni tekshirish haqidagi hisobotlar tuzilmoqda.

Korxonada aniqlangan korrupsiya holatlari haqida xabar berish uchun ishonch telefoni, veb sayt, elektron pochta, telegram bot ishga tushirilgan. Mazkur aloqa kanallari orqali korrupsion holat bo'yicha murojaat yuborish va aloqa ma'lumotlarini olish imkoniyati yaratilgan bo'lib, har bir yuborilgan murojaat ro'yxatga olinishi hamda murojaatchini xabardor qilib turish imkoniyati mavjud.